

TASAVVUF VA INSON

Namozova Oysha Roziq qizi

oyshanamozova@gmail.com

Dunyo yaralibdiki, unda odamzod mavjud. Shu bilan birgalikda unga hamohang tarzda tasavvuf ham bor edi. Tasavvuf kecha yoki bugun paydo bo'lgan ta'limot emas. Uning ildizi bir necha mingyilliklarga borib taqaladi. Tasavvuf mumtoz adabiyotimizning ma'naviy asosi va negizi hisoblanadi. Bu ta'limot zamon va makon jihatdan keng ko'lamda, bir necha asrlardan buyon o'z mavqeyiga ega bo'lib kelayotir. Tasavvuf ilmining vatani Sharq xalqi mamlakatlari sanaladi. Bu ta'limot islom olamida VIII asr o'rtalarida paydo bo'lgan va musulmon dunyosining ijtimoiy-siyosiy, ma'naviy hayotiga chuqur kirib borishi fan, adabiyot, san'at, madaniyat rivojiga salmoqli hissa qo'shgan. XI asrdan boshlab esa Sharqning eng nufuzli shoir, yozuvchi, mutafakkir-u olimlari tasavvufdan oziqlangan holda bu ilmning insonparvarlik, haqsevarlik g'oyalaridan ruhlanib bahramand bo'lganlar.

Tasavvufning asosiy g'oyalarini islomning muqaddas manbalari - Qur'oni karim va Hadisi shariflar mazmun-mohiyati tashkil etgan. Shayx Mahmud As'ad Jo'shon "Islom, tasavvuf va axloq" asarida aytganidek, "Tasavvuf bir hovuzdek bo'lsa, uning suvlari Qur'oni karimdan guldirab keladi...".

Tasavvuf inson va insoniylik ustida bahs yuritadi. Islomning bosh g'oyasi va asosini tushuntirib beradi. Kishiga uning o'z nafsini borasidagi eng zarur ma'lumotlarni, boshqa insonlar bilan munosabatlaridagi eng muhim ijtimoiy odobni, banda bilan Robbi orasidagi bog'lanishda unga foyda va zarar beradigan narsalarni o'rgatish orqali Islomning mohiyatini anglatadi.

Tasavvufdagi eng muhim masalalardan biri inson mavzusidir. Ammo ta'limot insonning jismoniy, biologik tuzilishi bilan emas, ko'proq uning ruhiy tuzilishi, tabiati bilan qiziqadi. Ma'lumki, inson ikki moddiy borliq: badan va ruhdan iborat bo'lib, badani bilan u qariyb hayvondan farq qilmaydi. Uning insoniy tomonini ruhiy tuzilishi tashkil etadi. Inson badani go'zal yoki xunuk, yo mo'tadil bir ko'rinishga, shaklga ega bo'ladi va barcha jonsiz predmetlar singari ma'nosiz bo'ladi. Badanga ma'no-mazmunni ruh kiritadi va ruh insonning ko'zlarida, yuz ifodasida, ovozida namoyon bo'ladi. Ruh insonning botin olami, ichki dunyosi ham deyiladi. Ruhning boy yoki qashshoqligi inson tabiatini belgilaydi. Ichki manaviy dunyosi boy insonning tabiati go'zal bo'ladi. Chunki, boy ruhiyat badanni pok va chiroyli amallar qiladigan qilib, chiroyli va mazmunli holatlarga solib tarbiyalaydi.

Tasavvuf -xolislik, soflik, muomala ta'limi. Tasavvuf yo'liga kirgan kishining Haq zotni anglashida hech bir ixtilof qolmaydi. Shuning uchun ham tasavvuf "ruhni tarbiyalash" ta'limoti deb ataladi. Tasavvuf inson vujudi va ruhiy garmoniyasi, mutanosibliyi, uning butun tabiat bilan ham uyg'unlikda bo'lmog'i, kamolotga intilmog'i lozimligini muhokama etar ekan, bevosita ijtimoiy masalalar talqiniga kirishadi. Tasavvufni qiziqtirgan bu masalalar Ma'rifat, Komil inson, Muhabbatdir. Shayx Ibrohim Afandi ta'kidlaganlaridek,

Tasavvufning asosi nomayi borliqdin kechmoqdur,
Tasavvuf ahli shar'u ahli iymon o'lmoqqa derlar.
Tasavvuf orif o'lmoqdir hakiyman odatullohga,
Tasavvuf jumla ahli dardga darmon o'lmoqqa derlar.
Tasavvuf anglamoqdir yetmish ikki millatning tilin,
Tasavvuf olami aqlga Sulaymon o'lmoqqa derlar.
Tasavvuf har nazarda Zoti Haqqa nozir o'lmoqdir,
Tasavvuf so'fiyga har mushkul oson o'lmoqqa derlar.

Tasavvuf inson va insoniylik ustida bahs yurituvchi ilm. U islomning bosh g'oyasini tushuntirib beradi. Kishiga uning o'z nafsi borasidagi eng zarur va kerakli ma'lumotlarni, boshqa insonlar bilan munosabatlardagi eng inja ijtimoiy odobni, banda va Robbi orasidagi bog'lanishda unga foyda va zarar keltiradigan narsalarni o'rgatish orqali Islomning mohiyatini ochib beradi. Tasavvuf mohiyat e'tibori bilan falsafaga yaqin va ular tarixiy taraqqiyot jarayonida yanada yaxlitlik kasb etgan. Ko'pincha bu ikki atamaning birgalikda qo'llanilishi shundan. Olam va odamni o'rganishda tasavvufda ko'proq ruhiy izlanish yo'llaridan borsa, falsafada aqliy yondoshuv ustivorlik qiladi. Shuning uchun poetik uslubida falsafiy fikrlash tarzi ko'zga tashlanadigan shoirlar ijodida tasavvufiy ohang va an'analarni uchratish mumkin. Inson tafakkuri takomil eta borar ekan, uni eng qiziqtirgan, o'ziga jalb etgan jihatlardan biri o'zini, ya'ni insonni tushunish bo'lib qolaveradi.

Tasavvuf she'riyatida mukammal bir shaxs sifatida KOMIL INSON ta'riflangan bo'lsa, zamonaviy she'riyatda u mutlaqo boshqa vazifa bajaruvchi LIRIK QAHRAMONga aylandi. Endigi she'riyat yangicha qarashlar orqali an'analarni davom ettirmoqda. Tasavvufiy istilohlar, tasavvufiy ma'nolar aks etgan she'rlar hozirda deyarli uchramaydi. Faqat an'anaviylikni, izdoshlikni davom ettirayotgan shoir va shoirlar ijodida uchramasa zamonaviy she'riyatda ularning ildizini topish murakkab. Chunki, davr o'ziga mos yangi shakl, mazmunlarni ro'yobga chiqarmoqda. Tasavvufiy g'oyalar qaysidir ma'noda she'riyatning negizga singdirildi.